

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI



TA'LIM VA TURIZM: MUAMMO VA YECHIMLAR

MONOGRAFIYA




«IQTISODIYOT»

338, 48

• 1.2


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI



Mualliflar jamoasi

TA'LIM VA TURIZM: MUAMMO VA YECHIMLAR

Monografiya



TOSHKENT – «IQTISODIYOT» – 2023

UO'K: 374.014 (01)
KBK: 74.201.507 T35

“Ta’lim va turizm: muammo va yechimlar”. Monografiya.
– T.: “IQTISODIYOT”, 2023. – 154 bet.

Ushbu monografiya O‘zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi, xususan, 2016-yildan boshlab O‘zbekistonda turizm sohasining qaytadan tug‘ilishi va sohada olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning negizini ochishga qaratilgan. Shuningdek, turizm sohasining ilmiy-nazariy jihatlari, olib borilayotgan islohotlarning amaliy natijarini hamda iqtisodiy islohotlarning ustun tomonlari va rivojlanish yo‘nalishlarini monografik tadqiq etishga qaratilgan.

Monografida asosan, turizm sohasidagi iqtisodiy imkoniyatlar, samarali rivojlantirish, turizm sohasidagi ta’lim islohotlari, turizm sohasidagi bozor munosabatlarining o‘zaro bog‘liqliklari, sabab-oqibatlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning o‘zgarishiga turizm sohasining ta’siri keng o‘rganilgan. Shu bilan birga, turizm sohasini rivojlantirish, iqtisodiyotning boshqa sektorlariga ta’sirini baholash, xizmatlar bozoridagi taraqqiyotni rivojlantirish va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish bo‘yicha taklif bayon etilgan.

Monografiya soha mutaxassislari, oliy o‘quv yurtlarining turizm yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan bakalavr va magistrleri, ilmiy xodimlar hamda tarmoq amaliyotchilari uchun mo‘ljallangan.

Mualliflar jamoasi:

*M. Amonboyev, A. Abduvoxidov, M. Aliyeva, A. Norchayev, B. Mamayev,
S. Safayeva, D. Abidova, H. Ochilova, Sh. Sayfutdinov, S. Xalilov,
G. Sadullayeva, D. Umirova, T. Sodiqov, N. Jo‘rayeva, M. Nurfayziyeva,
F. Xalimova, B. Xashimov, A. Baxromov, B. Dexqonov, M. Xushnazarova*

Mas’ul muharrir:

M. Amonboyev – iqtisod fanlari nomzodi, dots.

Taqrizchilar:

*A. Mirzayev – iqtisod fanlari doktori.
S. Abduxamidov – PhD.*

ISBN 978-9943-8861-5-5

© “IQTISODIYOT”, 2023.

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
1-bob. TURIZM RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI.....	6
1.1. O‘zbekistonda pandemiyadan keyin turizmni rivojlantirish yo‘nalishlari.....	6
1.2. Hududiy turizmning salohiyatini oshirish istiqbollari.....	11
1.3. O‘zbekistonda turizm sohasi mutaxassislarini tayyorlash muammolari.....	26
1.4. Turizm sohasidagi institutsional o‘zgarishlar va iqtisodiy islohotlar... ..	31
1.5. Turizm sohasi rivojlanishining barqarorlik omillari.....	39
1.6. Turizm faoliyatining makroiqtisodiy jihatlari.....	47
2-bob. TURIZMDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH SHART-SHAROITLARI.....	54
2.1. O‘zbekistonda turizm sohasida huquqiy mexanizmning takomillashuvi – sohadagi islohotlar asosi.....	54
2.2. Turizm ta‘limining zamonaviy mazmuni.....	66
2.3. Hozirgi bosqichda mehmondo‘stlik sanoatining xususiyatlari.....	70
2.4. Turizm xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda kadrlar salohiyati..	74
2.5. Pandemiya sharoitida turizm xizmatlarini rivojlantirish imkoniyatlari	83
3-bob. TURIZM TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI..	90
3.1. Restoran biznesida qo‘llanilayotgan innovatsiyalar.....	90
3.2. Restoran biznesini innovatsion boshqarish.....	96
3.3. Zamonaviy mehmonxona korxonasi va bo‘limlarining barqarorlikni ta‘minlash imkoniyatlari.....	107
3.4. Turizm sohasi rivojlanishining tahlili va prognozi.....	117
3.5. Hududlarda qishloq turizmini rivojlantirish imkoniyatlari.....	124
3.6. Mehmonxona korxonalari tomonidan biznesning samarali hisob yuritish siyosati tanlanishining iqtisodiy jihatlari.....	131
3.7. O‘zbekistonda tarixiy va madaniy turizmni rivojlanishining milliy iqtisodiyotga ta‘siri.....	147
XULOSA.....	151
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	153

KIRISH

O'zbekistonda iqtisodiyotning turli sohalarida bo'lgani kabi xizmatlar sohasida ham iqtisodiy islohotlar izchil amalga oshirilib kelinmoqda. Mustaqillik yillarida turizm sohasidagi islohotlar asosan 1992-yilda turizm sohasining mustaqil sohasi sifatida rivojlantirishdan boshlangan bo'lsa, 2016-yilgacha ma'lum islohotlar olib borilgan. 2016-yildan boshlab Yangi O'zbekiston islohotlari amalga oshirilgan ilk kunlardan boshlab turizm sohasining iqtisodiyotning yetakchi sohalari sifatida qaraldi va alohida e'tibor bilan rivojlantirilmoqda.

O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishiga 2016-yidagi boshlangan islohotlar nuqtayi nazaridan qaralsa, oxirgi 5 yil davomida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha 75 tadan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida¹ ko'rsatilganidek, O'zbekistonda turizm xizmatlari sohasini barqaror rivojlantirish, milliy iqtisodiyotda uning ahamiyati va ulushini izchil oshirish, turizm xizmatlarini chuqur diversifikatsiya qilish va ularning sifatini tubdan yaxshilash, turizm infratuzilmasi obyektlarini kengaytirishga olib keladigan o'rta va uzoq muddatli istiqbolda mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasiga asosan, shuningdek, 2017-2021-yillarda konsepsiyani amalga oshirishga doir aniq chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi"da mamlakatda turizm sohasiga qulay iqtisodiy sharoitlar va omillarni yaratish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirish, turizm sohasini jadal rivojlantirish bo'yicha ustuvor maqsad va vazifalarni belgilash, uning iqtisodiyotdagi o'rni va ulushini oshirish, xizmatlarni diversifikatsiyalash va ularning sifatini oshirish hamda turizm infratuzilmasini takomillashtirish masalalari hamda erishilishi zarur bo'lgan maqsadli ko'rsatkichlar aks etgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda).

Ushbu vazifalarning o'z vaqtida amalga oshirilishi turizm sanoatining tezkor rivojlanishi, uning milliy iqtisodiyotdagi ulushi ortishi, turizm xizmatlari sifatining oshishiga olib keladi.

Mamlakatimizda Prezidentimiz boshchiligida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, turizm sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar bu sohada ilmiy tadqiqotlarning olib borilishi va bu sohaga malakali kadrlarni yetkazib berishni ham ko'zda tutadi. Bu borada mamlakatimizda turizm sohasida ta'lim muassasalari, xususan, oliy ta'lim tizimida turizm sohasiga kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yaxshilash bo'yicha ham zarur choralarni ko'rish belgilangan. Shuningdek, turizm xizmatlari sohasida oliy malakali kadrlarni tayyorlash bo'yicha ilmiy markazlar, ilmiy tadqiqot institutlarini rivojlantirish, kasb-hunarga yo'naltirilgan muassasalar faoliyatini keng yo'lga qo'yish bilan birga davlat oliy ta'lim muassasalarida va xususiy oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Hozirgi kunda oliy malakali kadrlarni tayyorlash va oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish dalzarb muammolardan sanaladi. Turizm sohasi ma'lum ma'noda O'zbekiston uchun yangi soha bo'lganligi, mamlakatda turizm xizmatlari sohasi yetarlicha tadqiq etilmaganligi turizm sohasining ilmiy-nazariy jihatlarini tadqiq etishning hamda O'zbekistonda turizm xizmatlari sohasini rivojlanatirish mexanizmlarini samarali ishlashini ta'minlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar dolzarbligini yanada oshiradi.

Turizm va servis kafedrasining yetakchi, tajribali professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan ushbu monografiya turizm sohasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va harakatlar strategiyasida ko'zda tutilgan vazifalar haqida umumiy ma'lumot berish, turizm sohasining ma'no-mazmuni va ahamiyatini keng sharhlash, shu boradagi amaliy vazifalar hamda ularni hal etish yo'llari, mexanizmlari haqida zarur bilim, tushuncha va tasavvur berishga qaratilgan.

1-bob. TURIZM RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. O'zbekistonda pandemiyadan keyin turizmni rivojlantirish yo'nalishlari

Pandemiyagacha bo'lgan davrda dunyo miqyosida ish bilan band bo'lgan aholining har 1/10 qismi turizm faoliyati olib borayotgan korxonalar va tashkilotlarda va turizmga aloqador faoliyat turi bilan shug'ullangan. 2019-yilning oxirida boshlagan pandemiya sohaga katta ta'sir o'tkazdi. Xususan, 2020-yilda O'zbekistonda turizm xizmatlari eksportidan tushgan daromad 80 foizga pasayib ketdi. Bizda bir aniq savol paydo bo'ladi, ya'ni pandemiyadan keyingi davrda respublikamizda turizmni qanday tiklash va rivojlantirish kerak.

Turizm COVID-19 pandemiyasi davrida eng ko'p zarar ko'rgan sohalardan biri hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon Sayyohlik Tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, sayyohlarning tashrifi 2020-yilda 2019-yilgi ko'rsatkichga nisbatan 74 foizga kamaygan. Pandemiya oldin turizm yirik biznes hisoblanib, global yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizidan ko'prog'ini tashkil qilgan. Turizmga bog'liq yoki ixtisoslashgan mamlakatlarda bu ulush yanada ko'proqni tashkil etadi.

Bu boradagi ko'rsatkichlar bo'yicha to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston iqtisodiyotida turizmning ahamiyati tahlili ko'rsatishicha, 2019-yilda turizm xizmatlari eksportidan tushgan daromad 1,3 milliard AQSh dollarini tashkil qilgan. Bu mamlakat yalpi ichki mahsulotining umumiy ulushida 2,3 foizni tashkil qilgan. Shuningdek, respublika eksportida umumiy ulushida 7,3 foiz ko'rsatkichga erishgan.

Respublikamiz turizmida pandemiya boshlangan davrga qadar doimiy o'sish kuzatilgan. Xususan, turizm xizmatlari eksportidan tushgan daromad 2017-yilda 547 million dollar (YaIMning 0,9 foizi), 2018-yilda esa 1,04 milliard dollar (YaIMning 2,1 foizi) tashkil qilgan.

2021-yilning yanvar oyida AOKAda o'tkazilgan brifingda qatnashchilar: "2020-yilda turizm xizmatlari eksportidan tushgan daromad 261 million dollar tashkil etib, mamlakatga 1 million 504 ming turist tashrif buyurgani" bo'yicha ma'lumotlar keltirib, "2021-yilda barcha ishlarni umumiy raqamlar orqali emas, aniq rejalar va reysma-reys yo'nalish bo'yicha batafsil hisob-kitob asosida amalga oshirmoqchimiz, ziyorat turizmiga ko'proq e'tibor qaratmoqchimiz. 2021-yilda O'zbekistonga 1 million 700 ming nafar xorijiy sayyoh tashrifini ta'minlash bo'yicha reja qilingan va keladigan daromad 370 million dollar bo'lishi kutilyapti" – deb aytib o'tdi.

Bu keltirilgan ma'lumotlar va raqamlarni 2019-yildagi "Pandemiyasiz dunyo"dagi holat bilan taqqoslaydigan bo'lsak, 2020-yilda turizm xizmatlari eksportidan tushgan daromad 80 foizga pasaygan. Agar 2021-yilda vaksinatsiya jarayonlari tezlashib, vazirlik tomonidan e'lon qilingan prognozlar o'zini oqlasa, sohadan keladigan daromadlar 2019-yildagi ko'rsatkichlarning 28 foizi miqdorida tiklanishi mumkin.

Bundan tashqari turizm iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari: transport, mehmonxonalar biznesi, umumiy ovqatlanish, savdo-sotiq sohalarida ham ikkilamchi talabni yuzaga keltirishi natijasida iqtisodiyotga jiddiy zarar yetkazgan.

Respublikamiz turizmida asosiy muammo va kamchiliklar bugungi kunda nimalardan iboratligi bo'yicha olib borilgan kuzatishlar natijasi ko'rsatishicha, O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlarning ko'pchiligi geolokatsiya yaxshi yo'lga qo'yilmaganini ta'kidlashadi. Turistlar mamlakatga mustaqil tashrif buyuruvchi sayyoh o'zi istagan joyga borishda va istagan narsasini topishda qiyinchiliklarga duch kelishini aytishgan. Mamlakatda pandemiyadan keyingi davrda bu sohani isloh qilish juda ham muhim hisoblanadi. Buning barchasi – O'zbekistondagi internet sifati o'rtacha ko'rsatkichdan past darajada ekanligida. Aksariyat mehmonxonalar va kafelarda Wi-Fi juda zaif yoki shunchaki ulanmagan. Tashqi dunyo bilan aloqa qilishda turistlarda jiddiy muammolar bo'lishi mumkin. Bularning hammasiga internet sifatini oshirish bilan ma'lum darajada yechim topish mumkin.

Turistlar o'rtasida olib borilgan so'rovlarga asosan mamlakatimizga tashrif buyurgan turistlar fikriga ko'ra, O'zbekistonga sayohat qilishdagi eng katta noqulaylik ro'yxatdan o'tish bilan bog'liqligini ko'rsatmoqda. Mamlakatga kirish va chiqish uchun, hatto mehmonxonada joylashish va tark etish jarayonida ham alohida blanka to'ldiriladi. Shuningdek, O'zbekistonda valyutani xususiy ayirboshlash shoxobchalari mavjud emas va uni faqat banklarda va ixtisoslashgan ayirboshlash xizmatlarida almashtirish mumkinligi keltirib o'tilgan.

Bundan tashqari mamlakatda mehmonxonalar va transport narxi oziq-ovqat va boshqa mahsulotlar (kiyim-kechak, ichimliklar, sovg'alar va h.k.) bilan taqqoslanganda, ancha qimmat hisoblanadi. Mamlakat hududlarini bir-biri bilan bog'lashda muammoli vaziyatlar mavjud (masalan, turizm mavsumining eng qaynoq paytlarida ham Shahrisabzdan Xivaga to'g'ridan to'g'ri aviaqatnovlar yo'lga qo'yilmagan).

Yuqoridagi muammolarning yechimini pandemiya sharoitida o'ylab ko'rishga vaqt yetarlicha bo'lib, pandemiyadan keyingi davrda

respublikamizda turizmni qanday tiklash bo'yicha aniq tavsiyalarni ishlab chiqishimiz kerak. Bu borada AQSh Global media agentligi (U.S. Agency for Global Media) bilan hamkorlikda tashkil etilgan treningda ma'ruza qilgan xalqaro konsultant, sobiq diplomat Temuri Yakkabashvilining ta'kidlashicha, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar reklama uchun eng arzon va qulay hisoblanadi, ammo internetda O'zbekiston haqida to'liq ma'lumot olishning iloji yo'qligini qayd etib o'tdi.

Mehmonlar uchun ikki va uch yulduzli mehmonxonalar tizimini kengaytirish kerak. O'zbekistonda turistlarga nisbatan "Boy qatlam" sifatida qaralib, doimiy ravishda ularga qimmat xizmatlar taqdim qilinadi. Ammo statistik ma'lumotlar yaxshilab o'rganilsa, ularning aksariyati 60 yoshdan oshgan va iloji boricha o'rtacha xarajatlarni xohlovchi qatlam vakillari hisoblanadi. Transport xizmati sifati va narxlariga ham alohida ahamiyat berish judaham muhim. Respublikamiz turizmidagi yana bir muammoli vaziyat mehmonxonalar tarmog'i bilan bog'liq. Bu ichki turizmning rivojlanishida ham juda muhim omil hisoblanadi.

"Butun dunyoda xizmat sektorida, xususan, mehmonxona tarmog'ida qo'shimcha qiymat solig'i mutlaqo yo'q yoki juda ham katta farq bilan iqtisodiyotda o'rnatilgan QQSdan past stavkada belgilangan. Masalan, turizmi yaxshi rivojlangan Turkiyada QQS 18 foiz qilib belgilangan, ammo mehmonxonalar uchun 8 foiz. Germaniya, Gretsiya, Fransiyada mehmonxonalar uchun QQS kamida 2 barobar past. Bizda esa hozirda bu bir xil 15 foizlik stavka belgilangan. Bu boradagi ishlarni qayta ko'rib chiqishga ehtiyoj sezilmoqda. Lekin masalaning ikkinchi tomoni ham bor bo'lib, QQS davlat byudjetiga asosiy tushum keltiradigan soliq hisoblanadi. O'zbekistonda mehmonxonaning soliq yuki biz olgan raqamlar bo'yicha 37 foizga to'g'ri keldi. Buncha soliq yuki bo'lishi juda katta raqam. Natijada mehmonxona xizmatlari narxini 37 foizga ko'paytirishga to'g'ri keladi.

QQS tufayli Turkiya va O'zbekistondagi bir mehmonxonaning egasi bir xil pul topgan taqdirda Turkiya mehmonxonasi O'zbekistondagi mehmonxonadan 10 foiz arzon bo'la oladi. Masalan, Turkiyada bitta xona 90 dollar bo'lsa, O'zbekistonda aynan shuncha pul topish uchun xonani 100 dollarga sotish kerak. Bu mehmonxona egasining aybi emas, bu tizimning xatosi ekanligi mutaxassislar tomonidan tushuntirilmoqda.

Respublikamizda hozirda mehmonxonalariga subsidiyalar berish muddati 2023-yilning 31-dekabrigacha uzaytirildi. Bu davom etayotgan pandemiya davrida tarmoqning jon saqlab qolishi uchun ahamiyatli hisoblanadi.

O'zbekiston turizmida yana bir narsaga e'tibor qaratish kerak. Tashrif buyurayotgan sayyohlarning juda katta qismida mamlakatning madaniy va tarixiy merosiga qiziqishi yuqori. Shu o'rinda bitta narsaga ahamiyat berish muhim. Statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2010-yildan beri O'zbekistonda birorta muzey tashkil etilmagan. Madaniy turizmga bog'liq bo'lgan mamlakatda bunday holatning kuzatilishi ajablanarli hol ekanligi ma'lum bo'lib qoldi. Xalqaro tajribada madaniy turizm ko'proq "Bir martalik" tashriflarga ixtisoslashgan. Shu sababli qo'shimcha ravishda biznes turizmi (mamlakatning qishloq xo'jaligi potensialidan kelib chiqib), ziyorat turizmi, ekoturizm, sport turizmi kabi yo'nalishlarga alohida ahamiyat qaratish kerak.

Bundan tashqari o'zbek oshxonasi doimiy ravishda turistlarning e'tiborida bo'lib kelgan. Bu tarmoqni rivojlantirish istiqbolli hisoblanadi. Oziq-ovqat mahsulotini tayyorlash O'zbekistondagi boy tarix va madaniyatning katta qismidir.

Respublikamizda ziyorat turizmi bo'yicha istiqbolli rejalarni amalga oshirishda katta salohiyat mavjud. Xususan, aholisi soni ko'p bo'lgan musulmon davlatlardan (Indoneziya, Pokiston, Malayziya, Turkiya, Bangladesh), shuningdek, Rossiyaning islom diniga e'tiqod qiluvchi subyektlaridan sayyohlarni jalb qilish sohaga katta imkoniyatlar ochib beradi. Bunda kelayotgan insonlarda ijobiy taassurot uyg'otishning ahamiyati yuqori. Ammo kelayotgan insonlarga qulay sharoit yaratish kerak. Ba'zi ziyorat yodgorliklarida tahorat olishga yetarli sharoit yaratilmagani yoki tahorat olishning pulli ekani bu yo'nalishda ijobiy turizm imijini shakllantirishga xalaqit berishi tabiiy.

Shu bilan birgalikda, respublikamiz turizmida halol standartlarni tatbiq qilishda kamchiliklar bor. O'zbekistonda bu borada ko'proq oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan bu talablar qo'llanishiga urg'u beriladi, ammo tashrif buyuruvchilar talablarida mehmonxona xizmatlarida (yuvinish vositalari, matolarning kimyoviy tarkibi) ham bu borada e'tiborliroq bo'lishga nisbatan e'tirozlar mavjud. Shuningdek, aeroportlar va temir yo'l vokzallarida namozxonalar sonini ko'paytirish maqsadga muvofiqdir.

Din ishlari bo'yicha qo'mita ma'lumotlariga ko'ra, hozirda Turkiyada 30 milliondan ziyod Naqshbandiya tariqatiga e'tiqod qiluvchi insonlar istiqomat qiladi. Ammo o'tkazilgan so'rovnomalarga ko'ra, ularning ko'pchiligi shayx Bahouddin Naqshband maqbarasining Buxoroda ekani haqida ma'lumotga ega emas.

2021-yil 15-aprel sanasidan boshlab “Uzbekistan Airports” AJ havo kemalariga xizmat ko‘rsatish uchun yig‘im va tariflarni pasaytirish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Asosiy yig‘im va tariflar o‘rtacha 27 foizga pasaytirilib, O‘zbekiston aeroportlariga muntazam yo‘lovchi reyslarini bajaradigan xorijiy aviakompaniyalar uchun qo‘llanadi. Bu qaror aviachiptalar narxlariga ijobiy ta‘sir qilishi kutilmoqda.

2021-yil 15-mart holatiga ko‘ra, fuqarolari uchun O‘zbekistonda vizasiz rejim joriy qilingan mamlakatlar soni 90 tani tashkil qildi. Oxirgi uch yil ichida ushbu ro‘yxatdagi davlatlar soni 10 barobardan ortiq ko‘paytirildi. Bu esa ushbu davrda turistlar oqimi deyarli 4 baravar oshishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Shuningdek, mamlakat sayohat qilish uchun eng xavfsiz mamlakatlar qatoriga kiradi. Bu sayyohlarni jalb qilishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Bayram kunlari oldidan qo‘shimcha dam olish kunlari joriy qilinishi va transport narxlariga chegirmalar berilishi ichki turizmning ham jonlanishiga olib keldi.

Turizmi qayta tiklashda dunyo mamlakatlari olib borayotgan chora-tadbirlar natijalari bo‘yicha to‘xtaladigan bo‘lsak, jahon sayyohlik tashkiloti joriy yilning birinchi choragi yakunlari bo‘yicha e‘lon qilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, 2021-yilning birinchi choragida 2019 yilning mos davri bilan solishtirganda, sayyohlar oqimi 85 foizga pasaygan.

Jahon sayyohlik tashkiloti 2019-2020-yillardagi holatlarni joriy yil bilan solishtirgan holda turizm sohasi uchun vaziyatning pessimistik va optimistik versiyadagi prognozlarini taqdim qildi.

Birinchi ssenariy iyul oyidagi tiklanishga ishora qilmoqda, bu 2020-yilgi tarixiy eng past ko‘rsatkichga nisbatan 2021-yilda turistlarning 65 foizga ko‘payishiga olib keladi. Bu holda sayyohlar oqimi 2019-yilda qayd etilgan darajadan 55 foiz pastroq bo‘ladi.

Ikkinchi ssenariy sentabr oyida potensial tiklanishni nazarda tutadi, bu o‘tgan yilga nisbatan kelganlarning 30 foizga ko‘payishiga olib keladi. Shunga qaramay, ko‘rsatkich 2019-yilgi darajadan 67 foizga past bo‘lishini anglatadi.

Turizm sanoatining kelajagi emlash jarayonining qay darajada kechishiga bog‘liq. Hozirda ba‘zi hukumatlar to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki sohaga imtiyozli kreditlar va kafolatlar orqali moliyaviy yordam ko‘rsatib kelmoqda. Xususan, Tailand ichki turizmi rivojlantirish uchun 700 million dollar mablag‘ ajratdi. Bundan tashqari mamlakatda sarguzasht va tibbiyot turizmini rivojlantirishga e‘tibor kuchaytirilmoqda.

Yamaykada hukumat 10 ming sayyohlik ishchilariga malakalarini oshirishga yordam berish uchun bepul on-layn sertifikatlash mashg'ulotlarini o'tkazdi. Mamlakatda mehmonxona sanoatidagi xonadorlarga mahalliy fermerlardan tovarlarni to'g'ridan to'g'ri sotib olish imkoniyatini beradigan on-layn platforma ishga tushirildi. Kosta-Rikada ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha davlat strategiyasi ishlab chiqildi.

Pandemiya davri va undan keyingi dastlabki yillarda sohaning tiklanishi va rivojlanishida zamonaviy texnologiyalar muhim rol o'ynashi mumkin. Ijtimoiy masofa saqlash, gigiyena protokollari yaqin kelajakda saqlanib qolishi mumkinligi sababli raqamli texnologiyalar orqali xizmat ko'rsatishning yo'lga qo'yilishi sohaga investitsiyalar tiklanishi uchun ko'prik bo'ladi.

Bulardan xulosa qilib oldadigan bo'lsak, respublikamiz turizmida yagona platformani yaratish ustida ishlashimiz kerak. Bu orqali bir qator muammolar o'z yechimini topadi degan umiddamiz.

1.2. Hududiy turizmning salohiyatini oshirish istiqbollari

Bugungi kunda mehmondo'stlik hamda turizm sanoatlari, dunyodagi eng salmoqli va tez sur'atlarda rivojlanayotgan sanoat sohalaridan biri hisoblanadi. Bu tarmoqlarning alohida o'ziga xos jihati undagi kasblar sonining nihoyatda ko'pligidadir. Uning keng qamrovli taraqqiyoti esa ko'plab mamlakatlar uchun katta daromad manbayiga aylanib bormoqda.

Butunjahon sayyohlik tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, har yili 1 milliarddan ortiq kishi boshqa mamlakatlarga tashrif buyuradi. 2030-yilga kelib bu raqam 1,8 milliardgacha ko'payadi (UNWTO). Sayyohlar soni bilan bir qatorda ish o'rinlari soni ko'paymoqda. 2026-yilga kelib, mehmondo'stlik sanoatiga 370 million nafar mutaxassis jalb etiladi yoki dunyoda har 9 nafar kishidan bir nafari mazkur sohada (WTTC) ishlaydi.

"World travel & tourism council" (WTTC) sayohat va turizmning dunyodagi 185 mamlakat hamda 25 geografik yoki iqtisodiy mintaqalar uchun iqtisodiy va aholining ish bilan bandligiga ta'siri to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlaydi.

WTTCning "Oxford Economics" bilan hamkorlikda so'nggi yillardagi tadqiqotlari, Sayohat va Turizm sektori 2019-yilda 3,5 % o'sishga erishganini, to'qqizinchi yil ketma-ket dunyo iqtisodiyoti o'sishidan 2,5 %ni ortda qoldirganligini ko'rsatadi. So'nggi besh yil ichida sektor tomonidan har to'rtinchi yangi ish o'rinlari yaratildi².

² <https://www.oxfordeconomics.com/>

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, sayyohlik sohasi bugungi kunning eng muhim iqtisodiy sohalaridan biriga aylandi. Shu bois dunyoning ko‘plab davlatlari ushbu sohani yanada rivojlantirish, bu borada tegishli infratuzilmani jahon standartlari darajasida yaratish va sayyohlar oqimini oshirish bo‘yicha barcha choralarini qo‘llamoqda.

Mamlakatimizda ham mazkur sohani rivojlantirish borasida keng islohotlar olib borilmoqda. O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish bosqichlari:

Birinchi davr (1992 – 1999-yillar):

- turizm sohasi rivojlanishini muvofiqlashtiruvchi “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi tashkil qilindi,

- Buyuk Ipak yo‘lini qayta tiklashda mamlakatning ishtirokini avj oldirish va mamlakatda xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar qabul qilindi va amalga oshirildi.

Ikkinchi davr (2000 – 2016-yillar):

- O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi qonuni kuchga kirdi va O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat va hududiy dasturlari qabul qilindi va ular asosida choralar olib borildi.

Uchinchi davr (2016 yil dekabr oyidan hozirgi kungacha):

- turizm sohasidagi vakolatli davlat organi - O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tashkil qilindi, turizm sohasi milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida belgilandi hamda tub islohotlar amalga oshirildi.

- bunda 76 ta me‘moriy-huquqiy hujjat: Prezident qarorlari, farmonlari, Vazirlar Mahkamasining farmoyishlari va shu kabilarqabul qilindi;

- 2 ta qo‘shma hay‘at tuzildi: Turizm transport vazirligi hamda Turizm, Madaniyat va Sport vazirligi bilan birgalikda.

To‘rtinchi davr (2021 -2025-yilar):

- turizm sohasida islohotlarni jadalashtirish, dunyo miqyosida o‘z o‘rnini yuqori darajalarga ko‘tarish, turizmni rivojlantirish bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlarni reja asosida bajarish;

- pandemiya davridagi yo‘qotishlarni to‘ldirib, 2025-yilgacha turistlar soni va turizm sohasidagi eksportni ko‘paytirish.

1. Turizm sohasi rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish:

- 2016-yil 2-dekabrda Turizm sohasidagi vakolatli davlat organi – Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tashkil etildi;

- hamda 5 ta hududda, ya'ni Samarqand, Buxoro, Xorazm va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahrida departamentlar, qolgan hududlarda qo'mita boshqarmalarining faoliyati yo'lga qo'yildi;

- 2020-yilda yangi lavozimlar joriy etildi, Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining turizm va sportni rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari (maslahatchilari) tayinlandi.

2. Sohaning qonunchilik va normativ-huquqiy asosini mustahkamlash:

- 2016-yil 2-dekabridan bugungi kunga qadar jami 68 ta qonun va qonunosti hujjatlari:

- 1 ta qonun,
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15 ta farmoni;
- 14 ta qaror va 1 ta farmoyishi;
- Vazirlar Mahkamasining 30 ta qarori va 4 ta farmoyishi;
- Adliya ro'yxatidan o'tkazilgan qo'mitanning 3 ta qarorlari ishlab chiqilib, ijroga qaratildi.

3. Respublikaga kirish viza talablarini va ro'yxatga olish tartib-taomillarini soddalashtirish:

- 2018-yilning fevral oyidan bugungi kunga qadar 77 ta xorijiy mamlakat fuqarolari uchun respublikaga kirish vizalari bekor qilindi hamda ularning soni 9 tadan 86 taga yetkazildi;

- birgina 2019-yildan qo'shimcha tarzda yana 45 ta mamlakat fuqarolari uchun vizasiz rejim tatbiq etildi;

- 2021-yil 1-martdan boshlab 5 ta mamlakat fuqarolari uchun 10 kunlik vizasiz rejim joiy etildi.

2018-yil 15-iyuldan boshlab:

- elektron kirish vizalarini berish tizimi - “E-VISA.GOV.UZ” ishga tushirildi, bugungi kunda elektron viza olish imkoniyatiga ega mamlakatlar 57 tani tashkil etadi;

- respublikadan tranzit maqsadida bo'lib turgan 53 ta xorijiy mamlakat fuqarolariga respublika hududida 5 sutkagacha vizasiz bo'lish huquqi taqdim etildi;

- mamlakatidan qat'i nazar 16 yoshgacha bo'lgan barcha xorijiy fuqarolarga respublikaga kirish viza talabi bekor qilindi;

- “Vatandosh”, “Student visa”, “Academic visa”, “Medical visa”, “Pilgrim visa” va “Investment visa” kabi vizaning yangi turlari joriy qilindi.

4. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda maqbul va qulay turizm muhitini yaratish:

- tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan:

- joylashtirish vositalari faoliyatini yo‘lga qo‘yishda litsenziya talabi bekor qilindi;

- turoperatorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun hujjatlarni ko‘rib chiqish muddati bir oydan 10 kungacha qisqartirildi va on-layn shaklga o‘tkazildi;

- oilaviy mehmon uylari va xostellarni tashkil etish uchun soddalashtirilgan sertifikatlash tartibi joriy qilindi, ularga qo‘yilgan 22 ta talab bekor qilindi;

- mehmonxonalarni qurish va faoliyatini tashkillashtirish, tematik parklar yaratish, turizm avtotransportlari olib kirish kabi turizm sohasi faoliyati turlari uchun 30 tadan ortiq turli soliq, bojxona va boshqa turdagi imtiyoz va afzalliklar berildi;

- mehmonxonalardagi har bir umumiy ovqatlanish va alkogolli mahsulotlar savdosi nuqtasi uchun alohida ruxsat beruvchi hujjat olish talabi bekor qilindi;

- mehmonxonalar o‘zlarining mehmonlariga xizmat ko‘rsatish uchun yo‘lga qo‘yilgan transport xizmatlarini litsenziyalash talabi bekor qilindi;

- shuningdek, Turkiya va Koreyaning tajribasidan kelib chiqib, jami 8 ta turdagi mehmonxonalarning namunaviy loyihalari ishlab chiqildi va loyihalari tadbirkorlarga beg‘araz asosda berilmoqda. O‘tgan yil davomida ushbu loyihalar 300 ta tadbirkorlik subyektlariga taqdim etildi, ulardan 60 tadan ortig‘i loyihalarni amalga oshirmoqda:

- ma‘lumot uchun: ushbu loyihalarning qiymati 70 mln. so‘mdan 300 mln. so‘mgachani tashkil etadi.

- investorlarning mehmonxonona qurilishi uchun sarflagan mablag‘larini Davlat budjetidan qisman subsidiyalash belgilandi, xususan, 3 yulduzli mehmonxonadagi har bir xona uchun 40 mln. so‘m, 4 yulduzli mehmonxonadagi har bir xona uchun esa 65 mln. so‘m miqdorida qoplanmoqda.

- mashhur mehmonxonona brendini franshiza asosida foydalangani uchun royalti xarajatlari bir qismini qoplash, xususan, 3 yulduzli mehmonxonada yillik har bir xona uchun 200 AQSh doll., 4 yulduzli mehmonxonadagi har bir xona uchun esa 400 AQSh doll. miqdorida qoplanmoqda.

5. Turizm bozorining turli segmentlariga yo‘naltirilgan turizm mahsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish:

• ekstremal va tog' turizmi turlarini rivojlantirish doirasida Toshkent viloyatida eng ilg'or va innovatsion texnologiyalar asosida barpo etilgan "Amirsoy" kompleksi ishga tushirildi;

• kinoturizmni rivojlantirish maqsadida respublikada olingan audiovizual mahsulotlar uchun xorijiy kinokompaniyalar xarajatlarining bir qismini qoplab berish tartibi joriy qilindi;

• hududlardagi mahalla va qishloqlardagi tabiat va urf-odatlardan kelib chiqib, turizm jozibadorligini oshirish va turistlar oqimini ta'minlash maqsadida "**Turizm mahallasi**", "**Turizm qishlog'i**" va "**Turizm ovul**"lari tashkil qilinmoqda (hozirga vaqtda 120 ta salohiyatli fuqarolar yig'inlari saralab olingan);

• avtoturizm turizm turlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish maqsadida avtomagistral yo'llari bo'ylab Xonobod shahridan, Termiz shahriga bog'langan holda Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq shahrigacha «O'zbekiston turizm magistrali» turizm transport koridori tashkil etilmoqda.

• faqat 2019-yil davomida joylardagi 440 ta yangi turizm obyektlari va maskanlar aniqlandi hamda turoperatorlar bilan hamkorlikda ushbu obyektlarning 147 tasi turizm marshrutlariga kiritildi;

• o'rmon xo'jaliklari hamda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda ekoturizm loyihalarini amalga oshirish borasidagi istiqbolli loyihalar tanlab olinib, hozirgi kunga qadar 11 ta loyiha ishga tushirildi (*Samarqand viloyatidagi "Zarafshon milliy tabiat bog'ida" 2 ta, Jizzax viloyatining "Baxmal" o'rmon xo'jaligida 1 ta, "Zomin" milliy tabiat bog'ida 2 ta, Farg'ona viloyatining "Qo'qon" davlat o'rmon xo'jaligida 1 ta, Toshkent viloyatidagi "Ugom-Chotqol Davlat milliy tabiat bog'i"da 3 ta va Namangan viloyatidagi "Pop" o'rmon xo'jaligida 2 ta*).

6. Respublika ichida turizm xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni qondirishga yo'naltirilgan ichki turizmni rivojlantirish:

• «O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!» ichki turizmni rivojlantirish dasturi qabul qilindi (2018-yil davomida ichki turizm bo'yicha 12,5 mln.dan ortiq sayohatlar amalga oshirilgan bo'lsa, 2019-yilda 14,7 mln.dan ortiq sayohatlar tashkil etildi);

• davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan o'z xodimlari, mahalla aholisi, yoshi keksalar va shu kabi toifadagi fuqarolarni sayohat qilishga rag'batlantirish, ko'mak berish va sharoit yaratib berish ko'zda tutilgan;

• shuningdek, xalqaro turizm mavsumi past bo'lgan davrlarda turizm infratruzilma obyektlarida chegirmali narxlarni e'lon qilish, oilaviy va